

FYODOR DOSTOYEVSKIYNING "OYDIN TUNLAR"

ROMANING O'ZIGA XOSLIGI

*Rahmonqulova Laylo*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

*Hammualliflar: Akbarova Sarvinoz, Boboyev Mashrab,*

*O'sarova Laylo*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada XIX asr taniqli rus yozuvchisi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy qalamiga mansub "Oydin tunlar" romani hamda yozuvchining mahorati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Roman, asar syujeti, xayolparast, orzumand, , asarning yaratilish tarixi, "Xazyayka", "Slaboe serdtse", bosh qahramon

"Oydin tunlar" – XIX asr taniqli rus yozuvchisi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning qalamiga mansub roman. Roman Dostoyevskiy tomonidan 1848-yilning sentabr-noyabr oylarida yozilgan. 1848-yil oktabr oyida roman nashr etilishi uchun Peterburg senzura qo'mitasidan ruxsat olingan. Roman ilk marta „Otechestvennyye zapiski“ jurnalining o'n ikkinchi sonida do'sti, sho'ir va yozuvchi Plesheevga bag'ishlab nashr etilgan. Keyinchalik roman ancha shov-shuvli darajada qayta ko'rib chiqilgan. Asarning 1860-yil nashr etilgan varianti Pleshcheevga atab yozilgan. Ikkinchi marta chop etilgan nusxalaridan ayrim o'rinlari saqlanib qolgan. 1865-yilgi nashrda esa bu o'rinlar asardan olib tashlangan.

Asar bosh qahramoni xayolparast, orzumand bir yigit. Oydin bir tunlarning birida xayol surib yurgan paytida tasodifan Nastenka ismli bir qiz bilan uchrashadi va unga oshiq bo'lib qoladi, shu bilan birga Nastenkaning nigohida o'zini va ularning kelajagini ko'rgandek bo'ladi. Nastenka unga yoshlik yillari ota-onasi vafot etgani shundan so'ng ko'zlari ojiz buvisi yashashini aytadi. Buvisi ko'p vaqtgacha Nastyani qo'yib yubora olmaydi, hatto uni o'zidan uzoqlashtirmaslik uchun nabirasining ko'ylagini o'z ko'ylagiga to'g'nag'ich bilan qadab qo'yadi. Nastyaning hayoti bir xilda, o'zi uchun zerikarli o'tardi. Ammo ularning uyiga tashrif buyurgan yangi mehmonning sharofati bilan uning hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Nastya bu yangi mehmonni sevib qoladi va u bilan qochib ketishni istaydi, ammo yigit juda kambag'al bo'ladi va oradan bir yil o'tib, Nastyani olib ketishga va'da berib, u yerdan ketadi. Oradan bir yil o'tsa ham yigit qaytmagan bo'lsa-da, Nastya o'sha yigitni qattiq sevgani uchun uni kutishda davom etadi. Ammo yigit qaytmaydi va hatto u Nastyaning maktublariga biror marotaba bo'lsa ham javob xati yozmaydi. Va, nihoyat, sevgan insoni uni tashlab ketganini tan olishga majbur bo'lgan Nastenka endigina uchratgan o'sha xayolparast yigitning unga nisbatan bo'lgan his-tuyg'ulariga javob berishga qaror qiladi. Biroq shunday kunlarning birida Nastenka to'satdan eski sevgilisi bilan uchrashib qoladi va hali ham o'sha insonni sevishini anglab, yangi xayolparast oshig'idan qochib ketarkan, unga o'zining bu xiyonati uchun kechirim so'rab yozgan xatini qoldiradi.

Bosh qahramon – o‘sha xayolparast va qalbi toza oshiq yigit Nastenkani kechiradi va uni yo‘qotganiga qaramay, unga bo‘lgan sevgisini qalbida saqlashda davom etadi. Nastenka uni tashlab ketgan bo‘lsa-da, qizni o‘zining hayotidagi eng go‘zal mo‘jiza deb biladi va Nastenkaga, unga sevisini o‘rgatgani, muhabbat deyilmish muqaddas tuyg‘uni tuhfa etgani uchun faqat baxt tilaydi, Nastenkaning qalbi hech qachon ozor chekishini istamaydi. O‘zi esa pok muhabbatidan ayriladi va bu hayotda yana yolg‘iz qoladi.

Hikoyaning bosh qahramoni xayolparast va orzumand yigit. Ushbu mavzu Dostoyevskiyning „Xozyayka“ va „Slaboe serdtse“ hikoyalarida, shuningdek, „Peterburgskaya letopis“ felyetonlarida ham yoritib berilgan edi.

1860-yillarda asarning qayta ko‘rib chiqilganidan keyingi ko‘rinishida, ayniqsa, Pushkin mahorat usullarini sezish mumkin. 1860-yillarning boshlarida Dostoyevskiy Pushkinning rus madaniyatidagi rolini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqan va uni „rus ruhi va rus ma’naviyatining kuchli timsoli“<sup>[1]</sup>. „Misr kechalari“ asarini esa „rus adabiyotidagi eng buyuk san’at asari“, „she’riyatimizning badiiy jihatdan eng mukammal asari“ deb atagan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Oydin tunlar“ asari bosh qahramoni prototipi qisman Dostoyevskiyning o‘zidir. „Peterburgskoy letopis“ning to‘rtinchi felyetoni so‘ngida yozuvchi: „biz hammamiz ozmi-ko‘p xayolparastlarmiz!“ jumllarini keltirib o‘tgan[1]. Badiiy adabiyotda xayolparast obrazi qiyofasida Gogolning „Nevskiy prospekt“ qissasidagi Piskarev, shuningdek, Gofman asarlarining bir qancha qahramonlarini ko‘rishimiz mumkin, ushbu adabiy qahramonlarning barchasini atrofda hayotdan norozilik va ideal dunyoga qochish istagi birlashtirib turadi<sup>[2]</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.M.Dostoyevskiy Oydin tunlar sentimental roman
2. <http://vmtheatre.ru/performances/belyenochi.html>
3. ziyonet.com ma’lumotlari.